



**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA EKOLOGIK
KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHART-
SHAROITLARI**

Отешова Гульнур Кабуловна

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda maktabgacha yoshdagi, xususan 5–6 yoshli bolalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va samarali metodlari yoritilgan. Tadqiqotning asosiy e'tibori bolalarda tabiat va atrof-muhit haqidagi boshlang'ich bilimlarni shakllantirish, tabiatga ongli va ehtiyotkorona munosabatni rivojlantirish, ekologik xulq-atvor ko'nikmalarini tarkib toptirish hamda ularni kundalik faoliyatda qo'llashga o'rgatishga qaratilgan. Tadqiqotda kuzatish, suhbat, pedagogik tajriba, didaktik va ekologik o'yinlar, amaliy topshiriqlar hamda tabiat bilan bevosita faoliyat kabi metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Ekologik ta'lim mazmuni O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimining "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bilan uyg'un holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: *maktabgacha ta'lim, ekologik kompetentlik, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, tabiat, atrof-muhit, ekologik bilim, ekologik ko'nikma, 5–6 yoshli bolalar, didaktik o'yin, kuzatish, amaliy faoliyat, "Ilk qadam".*

Kirish

Bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik madaniyatni shakllantirish nafaqat ekologiya sohasi, balki ta'lim tizimining ham muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ekologik muammolarning tobora dolzarb tus olishi yosh avlodda tabiatga mas'uliyatli munosabatni imkon qadar erta yoshdan shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Maktabgacha yosh davri bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari, xulq-atvori va atrofdagi olamga munosabati shakllanadigan muhim bosqichdir. Aynan shu davrda bola tabiat hodisalarini kuzatadi, o'simliklar va hayvonlar bilan tanishadi, suv, havo, tuproq va boshqa tabiiy boyliklarning inson hayotidagi ahamiyati haqida dastlabki tasavvurlarni egallaydi. Shu sababli ekologik tarbiyani faqat nazariy bilim berish bilan cheklamasdan, bolani tabiat bilan bevosita amaliy faoliyatga jalb etish muhimdir.

O'zbekiston maktabgacha ta'lim tizimida ushbu yo'nalish "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi bilan uzviy bog'liq. Dastur maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish, bolalarning rivojlanishini ta'minlash va ularni keyingi ta'lim bosqichiga tayyorlash uchun metodik asos vazifasini bajaradi.





Tadqiqotning maqsadi

Tadqiqotning asosiy maqsadi 5–6 yoshli bolalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishning samarali pedagogik shart-sharoitlari, metodlari va vositalarini aniqlash hamda ularning ta'lim-tarbiya jarayonidagi samaradorligini asoslashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlik tushunchasining mazmunini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish; 5–6 yoshli bolalarning ekologik bilim, ko'nikma va munosabatlarini shakllantirishning yosh xususiyatlarini aniqlash; maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik tarbiyaning mavjud holatini o'rganish; ekologik kompetentlikni shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik va ekologik o'yinlar tizimini ishlab chiqish; kuzatish, suhbat, tajriba, sayr va amaliy faoliyatdan foydalanish imkoniyatlarini aniqlash; ishlab chiqilgan metodikaning samaradorligini pedagogik tajriba asosida tekshirish.

Tadqiqot metodlari

Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, kuzatish, suhbat, savol-javob, pedagogik tajriba, bolalar faoliyatini tahlil qilish, didaktik o'yinlardan foydalanish va natijalarni taqqoslash metodlari qo'llanildi.

Bolalarning ekologik kompetentligini aniqlashda uchta asosiy mezonga e'tibor qaratildi: birinchi mezon — ekologik bilimlar. Bola o'simliklar, hayvonlar, tabiat hodisalari, suv, havo, tuproq va ularning inson hayotidagi ahamiyati haqida boshlang'ich tushunchalarga ega bo'lishi; ikkinchi mezon — ekologik munosabat. Bolaning tabiatga qiziqishi, hayvonlar va o'simliklarga mehr bilan munosabatda bo'lishi, tabiatni asrash zarurligini tushunishi; uchinchi mezon — ekologik xulq-atvor va amaliy ko'nikmalar. Bolaning chiqindilarni belgilangan joyga tashlashi, suvni tejashi, o'simliklarga zarar yetkazmasligi, hayvonlarga g'amxo'rlik qilishi kabi amaliy harakatlari.

Asosiy qism

Ekologik kompetentlikni shakllantirish jarayonida bolaning faol ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Faqat tarbiyachining tushuntirishi orqali ekologik bilimlarni berish yetarli emas. Bola o'zi kuzatishi, savol berishi, tajriba o'tkazishi, tabiat obyektlari bilan muloqot qilishi va olgan bilimlarini amaliy vaziyatlarda qo'llashi kerak.

Shu nuqtai nazardan, 5–6 yoshli bolalar bilan ekologik faoliyatni tashkil etishda “Ilm-fan va tabiat” yo'nalishidagi faoliyat, tabiat burchagi, sayr, kuzatish, mehnat va o'yinlardan foydalanish samarali hisoblanadi.

Tadqiqot doirasida ekologik kompetentlikni rivojlantirish uchun “Tabiatni asraymiz”, “Nima foydali, nima zararli?”, “O'simlikka nima kerak?”, “Hayvonlarga qanday yordam beramiz?”, “Suvni tejaymiz”, “Chiqindini to'g'ri joylashtir”, “Tabiatdagi do'stlarimiz” kabi didaktik va ekologik o'yinlardan foydalanish mumkin.

Masalan, “O'simlikka nima kerak?” o'yinida bolalarga o'simlikning o'sishi uchun zarur bo'lgan suv, yorug'lik, havo va tuproq haqidagi tasavvurlar beriladi. Bola tegishli rasmlarni tanlash orqali o'simlik ehtiyojlarini aniqlaydi. Shu bilan birga, tarbiyachi o'simlikka suv





berish, uni sindirmaslik va barglarini yulmaslik kabi amaliy xatti-harakatlarni ham tushuntiradi.

“Suvni tejaymiz” o‘yinida esa bolalarga suvning inson, hayvon va o‘simliklar hayotidagi ahamiyati tushuntiriladi. Kundalik hayotdagi oddiy vaziyatlar orqali kranni keraksiz holatda ochiq qoldirmaslik, suvni isrof qilmaslik kabi ekologik xulq-atvor shakllantiriladi.

Bunday o‘yinlarning afzalligi shundaki, bola ekologik qoidalarni majburiy yodlash orqali emas, balki qiziqarli faoliyat davomida o‘zlashtiradi. 5–6 yoshli bolalarda o‘yin faoliyati orqali ekologik madaniyatni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari zamonaviy tadqiqotlarda ham alohida ta’kidlangan.

Ekologik kompetentlikni rivojlantirishda kuzatish metodi ham katta ahamiyatga ega. Masalan, sayr vaqtida tarbiyachi bolalarning e’tiborini daraxtlarning barglari, qushlar, hasharotlar, gullar, ob-havo va fasliy o‘zgarishlarga qaratishi mumkin. Bolalar kuzatish davomida “Nima o‘zgardi?”, “Nima sababdan barglar rangini o‘zgartirdi?”, “Qushlarga qanday yordam berish mumkin?” kabi savollarga javob izlaydi.

Amaliy faoliyat ham ekologik bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi. Bolalar gullarga suv quyish, tabiat burchagidagi o‘simliklarni parvarish qilish, hovlini toza saqlash, urug‘ ekish kabi oddiy topshiriqlarni bajarish orqali tabiatga g‘amxo‘rlik qilish ko‘nikmasini egallaydi.

Tadqiqotning tajriba-sinov bosqichida bolalarning ekologik bilimlari va amaliy ko‘nikmalari dastlabki diagnostika orqali aniqlanib, keyinchalik maxsus ishlab chiqilgan ekologik mashg‘ulotlar, o‘yinlar, suhbatlar, kuzatishlar va amaliy topshiriqlar tizimi asosida rivojlantirildi. Yakuniy diagnostika natijalari boshlang‘ich ko‘rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Tajriba jarayonida ekologik faoliyatni muntazam va tizimli tashkil etish bolalarning tabiatga qiziqishini kuchaytirishi, ekologik tushunchalarni yaxshiroq o‘zlashtirishi va ekologik xatti-harakatlarni kundalik faoliyatga ko‘chirishiga yordam berishi aniqlandi. Bunda tarbiyachining shaxsiy namunasi ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, ekologik tarbiyada oila va maktabgacha ta’lim tashkiloti hamkorligi muhim hisoblanadi. Bolada shakllantirilayotgan ekologik odatlar uy sharoitida ham davom ettirilsa, ularning barqarorligi ortadi. Masalan, suvni tejash, chiqindini to‘g‘ri tashlash, o‘simliklarga g‘amxo‘rlik qilish kabi oddiy odatlar ota-onalar tomonidan ham qo‘llab-quvvatlanishi lozim.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqot natijalari maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik kompetentlikni shakllantirishda faqat nazariy bilim berish emas, balki bilim, munosabat va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ko‘rsatdi.

Ekologik o‘yinlar, kuzatishlar, suhbatlar va amaliy topshiriqlarning muntazam qo‘llanilishi natijasida bolalarda tabiat obyektlariga qiziqish, o‘simlik va hayvonlarga ehtiyotkor munosabat, tabiat hodisalarini kuzatish va tushuntirish, suv va boshqa tabiiy resurslarni tejash, atrof-muhitni toza saqlash, ekologik muammolarning oddiy sabab va oqibatlarini tushunish hamda tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan amaliy harakatlarda ishtirok etish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyati yaratildi.





Shu jihatdan ekologik kompetentlikni shakllantirish jarayoni bolalarning nafaqat ekologik bilimlarini, balki ularning bilish, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional va amaliy faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, 5–6 yoshli bolalarda ekologik kompetentlikni shakllantirish maktabgacha ta'limning muhim yo'nalishlaridan biridir. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish uchun ekologik mazmundagi bilimlarni bolalarning kundalik hayoti va faoliyati bilan bog'lash zarur.

Tadqiqot natijalari ekologik kompetentlikni shakllantirishda didaktik va ekologik o'yinlar, kuzatish, suhbat, tajriba, sayr, tabiat burchagidagi faoliyat va oddiy mehnat topshiriqlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi asosida tashkil etilgan bunday faoliyatlar bolalarda tabiatga ijobiy munosabatni shakllantirish va ekologik xulq-atvorning dastlabki ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muhim pedagogik imkoniyat yaratadi.

Shunday qilib, maktabgacha ta'lim tashkilotida ekologik tarbiyani tizimli tashkil etish orqali bolalarda tabiatni sevishtirish, uni asrash, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va atrof-muhitga mas'uliyatli munosabatda bo'lish kabi sifatlarni erta yoshdan shakllantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. – Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi. "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti. – Toshkent, 2020.
4. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga ekologik tarbiya berish.
5. Hasanboyeva O., Jabborova H., Nodirova Z. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. – Toshkent, 2013.
6. Xudayberdiyeva T. Maktabgacha ta'limda ekologik ta'lim va madaniyatni tarbiyalashning ilmiy-metodologik va didaktik tamoyillari. – 2022.
7. Xolboyeva G., Dolliyyeva X. 5–6 yoshli bolalarda ekologik madaniyatni rivojlantirishda o'yinli texnologiyalarini qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari. – 2025.